

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG'ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

2026-yil 5-mart

№ 8

Toshkent shahri

Soat: 11-00

Shahrisabz ko'chasi, 2-uy

...

...

...

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.
5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.
6. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
8. Bankning yirik bitimini ma'qullash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni uch kishidan iborat bo'lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

Mamaraimov Muzrob Zuxriddinovich – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Chakana biznes boshqarmasi boshlig'i;

Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Yuridik boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya a'zosi;

Salomov Sardor Fozil o'g'li – "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Korporativ biznes boshqarmasi bosh menejeri, komissiya a'zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

ma'ruzalar uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratilishi;
muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

...
...
...

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

3.1. Bankning Ustaviga 1-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

3.2. Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda Markaziy bankda ro'yxatga olinishini ta'minlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi, beshinchi va oltinchi masalalar bo'yicha:

4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.

5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.

6. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **to'rtinchi, beshinchi va oltinchi masalalar** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

4. Kun tartibidagi to'rtinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

5. Kun tartibidagi beshinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

6. Kun tartibidagi oltinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **yettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. Bankning yirik bitimini ma'qullash.

...

...

...

Kun tartibidagi **sakkizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

8. Bankning yirik bitimi ma'qullansin hamda bank Boshqaruvi tomonidan pul mablag'larini jalb qilishda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ta'minlansin.

...

...

...

Yig'ilish raisi

imzo

N. Yusupov

Ko'chirma asliga to'g'ri

